

**BOBURIYLAR DAVRIDA SAN’AT SOHASI RIVOJI TARIXI.**

**HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARTS IN THE ERA OF THE  
BABURIDS**

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ИСКУССТВА В ЭПОХУ БАБУРИДОВ**

**G‘aybullayev Saidahmadxon**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

*Teacher of the IRCICA Chair of Islamic History and Source Studies*

*E-mail: [Saidahmadxon1@gmail.com](mailto:Saidahmadxon1@gmail.com)*

**Shukurova Sadoqat**

*International Islamic Academy of Uzbekistan 4th-year student of the Faculty of Islamic Studies, "Islamic History and Source Studies" department*

*E-mail: [shukurovasadoqat2@gmail.com](mailto:shukurovasadoqat2@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu matnda Boburiylar imperiyasi (1526–1858) davrida san’at va madaniyat sohasida yuz bergan yuksalish jarayonlari, ularning tarixiy ildizlari hamda o‘rganilish darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotda Boburiylar san’atining shakllanishida Markaziy Osiyo (Temuriylar), Eron va Hindiston mahalliy an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan sintez jarayonlariga alohida e’tibor qaratilgan.*

*Maqolada me’morchilik, miniatyura rassomchiligi va xattotlik san’atining rivojlanish bosqichlari, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning ma’naviy merosi, xususan, “Boburnoma” asarining tasviriy san’at taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida tarixiylik, san’atshunoslik, qiyosiy-tahliliy va madaniyatlararo yondashuvlar kabi metodologik usullardan foydalanilgan. Shuningdek, o‘zbek va jahon olimlarining (Leyden Jon, Eyji Mano va b.) Boburiylar davri madaniyatini o‘rganishga qo‘shgan hissalarini tahlil etilgan.*

*Mazkur ish Boburiylar davri san’atini Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida tadqiq etuvchi talabalar, magistrantlar va soha mutaxassislari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

**Tayanch so‘zlar:** *Boburiylar imperiyasi, san’at rivoji, me’morchilik, miniatyura, “Boburnoma”, Temuriylar merosi, sintez, madaniy yuksalish, metodologik yondashuv.*

**Abstract:** *This text analyzes the processes of growth in the fields of art and culture during the Mughal Empire (1526–1858), their historical roots, and the extent of their scholarly study. The research places particular emphasis on the synthesis processes resulting from the*

*integration of Central Asian (Timurid), Persian, and local Indian traditions in the formation of Mughal art.*

*The article highlights the developmental stages of architecture, miniature painting, and calligraphy, as well as the role of Zahiriddin Muhammad Babur’s spiritual legacy, specifically the "Baburnama," in the advancement of visual arts. Methodological approaches such as historical, art historical, comparative-analytical, and intercultural methods were utilized throughout the study. Furthermore, the contributions of Uzbek and international scholars (such as John Leyden, Eiji Mano, and others) to the study of Mughal culture are analyzed.*

*This work serves as an important resource for undergraduate and graduate students, as well as specialists in the field, who study Mughal art as an integral part of Eastern civilization.*

**Keywords:** *Mughal Empire, development of art, architecture, miniature, "Baburnama", Timurid heritage, synthesis, cultural growth, methodological approach.*

**Аннотация:** *В данной работе анализируются процессы расцвета в сфере искусства и культуры в период империи Бабуридов (1526–1858), их исторические корни и степень научной изученности. Особое внимание уделяется процессам синтеза, возникшим в результате взаимовлияния традиций Центральной Азии (Тимуридов), Ирана и местных индийских традиций в формировании искусства Бабуридов.*

*В статье освещаются этапы развития архитектуры, миниатюрной живописи и каллиграфии, а также роль духовного наследия Захириддина Мухаммада Бабура, в частности произведения «Бабур-наме», в развитии изобразительного искусства. В ходе исследования были использованы такие методологические подходы, как исторический, искусствоведческий, сравнительно-аналитический и межкультурный методы. Также проанализирован вклад узбекских и мировых ученых (Джон Лейден, Эйдзи Мано и др.) в изучение культуры Бабуридов.*

*Данная работа служит важным источником для студентов, магистрантов и специалистов в этой области, исследующих искусство эпохи Бабуридов как неотъемлемую часть восточной цивилизации.*

**Ключевые слова:** *Империя Бабуридов, развитие искусства, архитектура, миниатюра, «Бабур-наме», наследие Тимуридов, синтез, культурный подъем, методологический подход*

*Boburiylar davri san’ati XVI–XVIII asrlarda Sharq va G’arb madaniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan noyob madaniy hodisalardan biridir. Shu sababli uni o‘rganishda turli xil tadqiqot yo‘nalishlari va metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.*

Ushbu davr san’atini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tarix, san’at va madaniyat fanlari doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar asosan me’morchilik, miniatyura san’ati, xattotlik va amaliy bezak san’ati keng yoritilgan.

Boburiylar imperiyasi hukmronlik yillari (1526-1857) Hindistonning tarixiy va madaniy rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin egallagan davr hisoblanadi. Bu sulola davrida nafaqat siyosiy jihatdan, balki ilm-fan, san’at va madaniyat sohaslarida ham muhim yutuqlarga erishgan. Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda ilm-fan va san’at taraqqiyotiga katta e’tibor qaratildi. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindiston zabt etilgandan so‘ng zamonaviy va qadimiy bilimlarni birlashtirib, yangi madaniy muhitni yaratilishi boshlanadi. Boburiylar imperiyasining ilm, san’at va arxitektura inshootlaridagi o‘ziga xos xususiyatlar, shuningdek, ilm-fan va san’at sohasidagi asarlar orqali imperiyaning kuchli ma’naviy va madaniy asosi haqida fikr yuritish mumkin<sup>9</sup>.

Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida bir necha asr davomida hukmronlik qilib, siyosiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shish va madaniy yuksalishga zamin yaratdi. Boburiylar sulolasining boshlanishi sifatida Bobur Farg‘ona taxtiga o‘tirgan (1494 y.), yoki Kobulda hokimiyatni qo‘lga olgan (1504 y.), yoki Bobur nomiga Hindiston podshohi sifatida xutba o‘qilgan (1526 y.) sana qaralishi mumkin. Sulola rasman uning so‘nggi vakili Bahodirshoh II taxtdan inglizlar tomonidan mahrum qilingan 1858-yilgacha davom etgan. Boburiylar sulolasi 300 yildan ortiq hukmronlik qildi<sup>10</sup>.

Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston va Rossiya olimlarining faoliyatlari diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiyev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning harakatlari tufayli “Boburnoma” bir necha bor nashr qilindi. (o‘zbek va rus tillarida)<sup>11</sup>.

Boburiylar imperiyasida ilm-fan va san’at taraqqiyoti haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Misol uchun, M.M. Ahmadovning “Boburiylar davridagi ilm-fan va san’at” nomli asari imperiya hududidagi madaniy rivojlanishning o‘ziga xos jihatlarini ochib bergan. Mazkur asarda boburiylar davrida faoliyat olib borgan olimlar, madaniy markazlar va bilimlarning o‘zaro aloqalari haqida ma’lumot beradi.

Bundan tashqari A.A. Oripovning “Boburiylar davridagi arxitektura va san’at” nomli kitobida arxitektura, shu jumladan, masjidlar, madrasa va maqbaralar haqida batafsil va

<sup>9</sup> [file:///C:/Users/user/Downloads/379-385%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/379-385%20(2).pdf)

<sup>10</sup> F. Nosirjonov. Ta’zim. T: “Kafolat print company”. 2021. -B. 13.

<sup>11</sup> [boburnomada bobur oilasi haqida \(4\).pdf](#)

qiziqarli ma'lumot bergan. San'at asarlari va ularning shakllanishi haqida so'z borganda N.N.Saydovning "Boburiylar san'ati va madaniyati" asariga murojaat qilish mumkin<sup>12</sup>.

Boburiylar davlati mavzuda O'zbekiston va jahonda juda ko'plab kitoblar yozilgan, badiiy asarlar bitilgan, ilmiy izlanishlar qilingan. Jumladan Leyden Jon(1775,Den Holm, 1811 Indoneziya)-shotlandiyalik shoir va sharqshunos, ilk G'arb Boburshunoslaridan. 1803-yil shifokorlik qilish uchun Hindistonga borgan. Sharq tillariga qiziqib fors, arab va turk tillarini o'rgangan. 1810-yilda Boburnomaning asli bilan tanishib tarjima qilishga urungan. Lekin vafoti sabab asarning birinchi qisminigina tarjima qilishga ulgurgan. Eyji Mano (1939-y., Aychi prefekturasi, Yaponiya) tarixchi olim, sharqshunos. Asosiy tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi bilan bog'liq bo'lgani uchun xitoy, turk, arab, forsva sanskrit tillarini o'rgangan 1986-yil Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlar tarixi mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan. "Boburnoma" ning Haydarobod va Qozon nusxalari asosida Farg'ona, 1984-yilda Kobul qismini yapon tilida nashr ettirgan. Shu bilan birga o'zbek olimlaridan Hamidulla Hasanov, Aziz Qayumov, Sayfuddin Jalilov va boshqalar tadqiqotlarini olib borganlar<sup>13</sup>.

Boburiylar davri san'ati Sharq sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida san'atshunoslik va tarix fanlarida alohida tadqiq etiladigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr san'ati XVI–XVII asrlarda Hindiston hududida shakllanib, unda Markaziy Osiyo, Eron va mahalliy hind madaniy an'analari o'zaro uyg'unlashgan. Shu sababli mazkur davr san'atini o'rganishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Birinchidan, tarixiylik tamoyiliga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv san'at asarlarini u yaratilgan davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilishni nazarda tutadi. Boburiylar davlatining tashkil topishi, markazlashgan boshqaruv tizimining shakllanishi hamda hukmdorlarning san'atga bo'lgan e'tibori san'at rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Akbar, Jahongir va Shoh Jahon hukmronligi davrida saroy san'ati yuksak darajada rivojlanib, yangi uslubiy yo'nalishlar yuzaga kelgan.

Ikkinchidan, san'atshunoslik (formal-estetik) yondashuv orqali asarlarning badiiy xususiyatlari, kompozitsion tuzilishi, rangtasvir vositalari va uslubiy jihatlari o'rganiladi. Boburiylar davri miniatyura san'atida realizmga moyillik, tabiat va inson obrazlarini aniq ifodalashga intilish kuzatiladi. Me'morchilikda esa simmetriya, geometrik aniqlik va bezaklarning nafisligi asosiy o'rin egallaydi. Bu jihatlari san'at asarlarini estetik mezonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

<sup>12</sup> Shavkatova M. Boburiylar imperiyasida fan va san'at taraqqiyoti // Journal of Advanced Research and Stability. – 2026. – № 46, 2-qism. – B. 3.

<sup>13</sup> Turdimirzayev M. X. Boburiylar imperiyasida fan va san'at taraqqiyotining o'ziga xosligi // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 2. – bet 1

Uchinchidan, qiyosiy-tahliliy yondashuv yordamida Boburiylar san’ati boshqa madaniy maktablar bilan solishtiriladi. Ayniqsa, Temuriylar va Safaviylar davri san’ati bilan o‘xshashlik va farqlarni aniqlash muhim ilmiy natijalarni beradi. Bu yondashuv orqali uslubiy meros, badiiy an’analar va ularning transformatsiyasi ochib beriladi.

Shuningdek, madaniyatlararo yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Boburiylar davlati ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli muhitda shakllanganligi sababli san’atda turli an’analarning sintezi kuzatiladi. Islomiy, hind va qisman Yevropa san’ati elementlarining o‘zaro ta’siri natijasida yangi badiiy ifoda vositalari paydo bo‘lgan. Bu jarayonni o‘rganish san’at taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aniqlashda muhimdir.

Manbashunoslik yondashuvi esa yozma va moddiy manbalarni tahlil qilishga asoslanadi. Tarixiy asarlar, xususan “Boburnoma”, saroy hujjatlari, miniatyura albomlari hamda me’moriy yodgorliklar tadqiqotning asosiy manbalari hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali san’atning rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Bobur va uning o‘g‘li Xumoyun Hind miniatyura rassomchiligi maktabiga asos soladi. Zahiriddin Muhammad Bobur (1525-1530) xattotlik va rassomchilikka juda qiziqqan. Uning shoh asari “Boburnoma”dan ma’lumki, u tabiat manzaralarini, odamlar qiyofasini usta rassomlardek tasvirlaganki, ular o‘quvchi diqqatini darhol o‘ziga tortadi. Mana shu xususiyat uchun bo‘lsa kerak, hind rassomlari bu kitobning forscha tarjimai qo‘lyozma nusxalarini bir necha marta ko‘plab nafis rasmlar bilan ziynatlaganlar. Bundan tashqari, “Boburnoma”da to‘rtta hirotlik va samarqandlik rassomlar – mashhur ustod Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, Boysunqur (Sulton Maxmud Mirzo o‘g‘li), Haydar Mirzolarining nomlari tilga olingan. Bobur o‘zining Movaraunnahrdagi sarguzashtlarga boy va taxlikali hayoti davomida ancha yosh bo‘lishiga qaramasdan, otabobolari temuriylar kutubxonalaridan qolgan har bir nodir qo‘lyozmani, hatto uning varaqlarini yig‘ib, jamlab, hammasini keyinchalik Hindistonga olib ketgan. Bobur vatanidan Hindistonga olib ketilgan bu nodir qo‘lyozmalar hind miniatyura rassomligining shakllanishida juda katta rol o‘ynaganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Chunki, hind rassomlari o‘z mahoratini oshirish maqsadida saroy kutubxonasidagi O‘rta Osiyodan keltirilgan rasmlardan nusxa ko‘chirib rassomlik sirlarini o‘rganganlar. O‘rni kelsa, o‘z ustozlaridan ‘tishga harakat qilganlar va eng mohir san’atkorlar bunga erishganlar<sup>14</sup>

Xulosa qilib aytganda Boburiylar sulolasining Hindistondagi uch asrlik hukmronligi (1526–1858) nafaqat siyosiy barqarorlik, balki jahon madaniyati xazinasini boyitgan o‘ziga xos “Boburiylar renessansi” davri sifatida tarixda qoldi. Olib borilgan tadqiqotlar va tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu davr san’ati Markaziy Osiyo (Temuriylar), Eron

<sup>14</sup> Baymurzayeva O. Sh. Boburiylar davrida nafis tasviriy san’at. – B. 1-2

(Safaviylar) va Hindistonning mahalliy an’analari o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida vujudga kelgan betakror hodisadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baymurzayeva O. Sh. Boburiylar davrida nafis tasviriy san’at. – B. 1-2.
2. Boburnomada Bobur oilasi haqida. – B. 1-8.
3. F. Nosirjonov. Ta’zim. T: ”Kafolat print company”, 2021. – B. 13.
4. Shavkatova M. Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyoti // Journal of Advanced Research and Stability. – 2026. – № 46, 2-qism. – B. 3.
5. Turdimirzayev M. X. Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyotining o‘ziga xosligi // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 2. – B. 379-385.